I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2019 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YaHM) hajmi 19 136,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o‘sish sur’ati 107,7 foizga teng bo‘ldi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida YaHM deflyator indeksi 116,5 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot*(YaHM)*– *milliy hisoblar asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi.*

YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘sish sur’atlari, foizda
2019 yil yanvar-dekabr oylarida



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o‘sish sur’atlari YaHM o‘sishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, qurilish – 123,1 foiz (umumiy ulushning 6,8 foizi), sanoat – 112,0 foiz (umumiy ulushning 15,3 foizi), savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 107,9 foiz (umumiy ulushning 5,8 foizi) vaxizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 107,1 foiz (umumiy ulushning 19,3 foizi)ni tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi

	mlrd.so‘m		*2018 yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida*
	2018 yil yanvar-dekabr	*2019 yil yanvar-dekabr*	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	**15 242,5**	**19 136,5**	**107,7**
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	14 746,5	18 294,6	107,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	496,0	841,9	110,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**14 746,5**	**18 294,6**	**107,6**
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	7 472,9	8 728,3	105,8
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	2 819,6	3 885,9	115,6
sanoat	1 982,4	2 715,0	111,7
qurilish	837,2	1 170,9	124,9
Xizmatlar	4 454,0	5 680,4	105,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	853,2	1 043,7	106,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	952,5	1 050,8	103,4
boshqa xizmatlar	2 648,3	3 585,9	106,1

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o‘sish sur’atiga asosiy ta’siri 124,9 foiz–qurilish, 111,7 foiz -sanoat tarmoqlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 75,3 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi, bu ko‘rsatkich 2018 yil yanvar-dekabr oylarida 77,8 foizni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi

yanvar-dekabr holatiga(jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-dekabr



2019 yil yanvar-dekabr



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida YaHM tarkibida Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi sohasining ulushi 47,7 foizni tashkil qildi, bu esa 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,0 punktga kamdir (50,7 foiz), xizmatlar sohasi 31,1 foizni tashkil qildi va 0,9 punktga ko‘paydi. Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)ni ulushi 21,2 foizni tashkil qilib, 2018 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,1 punktga oshdi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 10337,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 105,9 foiz o‘sishga erishildi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar--dekabr **2019 yil yanvar-dekabr**



savdo, yashash ovqatlanish bo`yicha xizmatlar

tashish va saqlash, axborot va aloqa

xizmat ko`rsatuvchi boshqa tarmoqlar

2019 yil yanvar – dekabrda yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 31,1 foiz (2018 yil yanvar-dekabrda 30,2 foiz)ni tashkil qildi.

Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 5,7 foizni (2018 yil yanvar-dekabrda 5,8 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 5,7 foizni (6,5 foiz), xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 19,7 foizni (17,9 foiz) tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati bilan solishtirma makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

(2019 yil yanvar-dekabr)

	O‘zbekiston Respublikasi		*Xorazm viloyati*		*Respublikadagi ulushi % da*	
	mlrd. so‘m	*O‘sish sur’ati, % da*	*mlrd. so‘m*	*O‘sish sur’ati, % da*	*yanvar-dekabr 2018 y.*	*yanvar-dekabr 2019 y.*
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	511838,1	105,6	19136,5	107,7	3,7	3,7
Sanoat	331006,6	106,6	8811,6	111,7	2,7	2,7
Istemol tovarlari	111494,3	112,1	5565,7	122,7	4,7	5,0
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	224288,8	102,5	14877,3	105,7	6,5	6,6
Investitsiyalar	189924,3	133,9	5566,8	167,1	2,4	2,9
Qurilish ishlari	68854,4	119,0	2612,3	124,9	3,7	3,8
Chakana tovar aylanishi	164184,2	107,9	6768,1	112,0	4,0	4,1
Xizmatlar, jami	190356,0	112,5	5673,9	112,5	3,0	3,0
Eksport (mln. AQSH doll.)	17 901,7	128,0	139,7	136,8	0,7	0,8
Import (mln. AQSH doll.)	24 276,1	124,9	410,9	2,4 m.	0,9	1,7

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 19136,5 mlrd. so‘mni, Respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,7 foizni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 107,7 foizni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8811,6 mlrd.so‘mni (respublikada sanoat mahsulotlarining 2,7 foizini)tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, o‘sish sur’ati 111,7 foizni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda 5565,7 mlrd. so‘mlik xalq iste’mol tovarlari (respublikada xalq iste’mol mahsulotlarining 5,0 foizi) ishlab chiqarilib, 2018 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 122,7 foizni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 14877,3 mlrd. so‘mni (respublikada viloyat qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi 6,6 foiz)ni tashkil etib, 2018 yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 105,7 foizga etdi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning iqtisodiyot vaijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbaalari hisobidan 5566,8 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, o‘sish sur’ati 2018 yilning shudavriga nisbatan 167,1 foizni (respublikadagi ulushi 2,9 foiz) tashkil etdi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida 2612,3 mlrd. so‘mlik (respublikadagi ulushi 3,8 foiz) qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 124,9 foizni tashkil etdi. 2019 yilning yanvar-dekabrida chakana savdo tovar aylanmasi 6768,1 mlrd. so‘mni (respublikadagi ulushi 4,1 foiz), o‘sish sur’ati 2018 yilning shu davriga nisbatan 112,0 foizni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 5673,9 mlrd. so‘mni,respublikadagi ulushi 3,0 foizni tashkil qildi va 2018 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o‘sish 112,5 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning yanvar-dekabrida 550,6mln. AQSH dollarini (respublikadagi ulushi 1,3 foizni), o‘sish sur’ati 2,0 martani, jumladan: eksport – 139,7 mln. AQSH dollarini(respublikadagi ulushi 0,8 foizni), o‘sish sur’ati 136,8 foizni, import–410,9 mln AQSH dollarini (respublikadagi ulushi 1,7 foizni), o‘sish sur’ati 2,4 martani tashkil etdi.